



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN:

«O'zbekistonning eng yangi tarixi»

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi

MAVZU



Режа:

1. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar.
2. Qoraqalpog‘istonda qishloq xo‘jaligi sohasidagi o‘zgarishlar.
3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi oliy ta’lim tizimi va undagi islohotlar.
4. Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.



Qoraqalpog‘iston, Qoraqalpog‘iston hududi – O‘zbekiston
Respublikasi tarkibidagi respublika maqomidagi O'zbekiston Respublikasi subyekti. 1924 yil 14 oktabrda bosqinchi bolsheviklar tomonidan Turkiston ASSR tarkibida Muxtor viloyat sifatida tashkil etilgan. Maydoni 166,6 ming km². Aholisi 1869,7 ming kishi (2019). Boshkenti – Nukus shahri tarkibida 16 tuman, 12 shahar, 14 shaharcha va 124 fuqarolar yig‘ini bor.

Aholisi, asosan, qoraqalpoq va o‘zbeklar, shuningdek, qozoq, turk-man, rus, tatar, koreyslar va boshqa yashaydi. Aholining o‘rtacha zichligi 1 km²ga 9,4 kishi. Shahar aholisi 48,5%, qishloq aholisi 51,5%. Davlat tillari – qoraqalpoq va o‘zbek tillari. Etnik tarkibi – 32,1 % qoraqalpoqlar, 32,8 % o‘zbeklar, 32,6 % qozoqlar, 4,2 % boshqa millatlar. Dindorlari – musulmon sunniylar. Yirik shaharlari: Nukus (siyosiy ahamiyati bo‘yicha Toshkentdan keyin 2-o‘rinda), To‘rtko‘l, Taxiatosh, Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Chimoy.

Qoraqalpog‘iston – parlament boshqaruv shakliga ega bo‘lgan O‘zbekiston respublikasi tarkibidagi hudud. Qonun chiqaruvchi oliy davlat vakolatli organi – ko‘p partiyaviylik asosida 5 yil muddatga saylangan deputatlardan iborat Qoraqalpog‘iston hududi Jo‘qorg‘i Kengeshi (QR JK). Qoraqalpog‘iston hududi Jo‘qorg‘i Kengeshi raisi respublika rahbari hisoblanib, u Jo‘qorg‘i Kengesh deputatlari orasidan 5 yil muddatga saylanadi (faqat ketma-ket 2 muddatdan oshmaydi). U bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Raisining o‘rinbosari hamdir. Davlat hokimiyatining oliy ijro etuvchi-boshqaruvchi organi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, ya’ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumati hisoblanadi. Qoraqalpog‘istonda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir vaqtda Qoraqalpog‘iston Oliy kengashining 1993-yil 9-apreldagi 12-chaqiriq 12-sessiyasida qabul qilingan Qoraqalpog‘iston Hududi Konstitutsiyasiga amal qilinadi. Qoraqalpog‘iston o‘z davlat ramzlari: gerb, madhiya va bayrog‘iga ega.

1990 yil 14 dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi suvereniteti e‘lon qilindi. 1991 yil 31 avgustda bu holat "O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida"gi Qonunda o‘z aksini topdi. 1993 yil 4 dekabrda davlat madhiyasi tasdiqlandi. Milliy mustaqillik davrida respublika suverenitetining me‘yoriy-huquqiy asoslari mustahkamlandi, yangi ma‘muriy hokimiyat tuzilmalari faoliyati o‘rnatildi. Respublikada 17 shahar va tuman hokimiyati, fuqarolarning mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari tashkil etildi, 200 dan ortiq jamoat tashkilotlari ishlab turibdi.

Asosiy siyosiy partiyalari, kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari. Qoraqalpog‘istonda O‘zbekiston Xalq Demokratik partiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashkiloti (1995.25.12), "Adolat" Sotsial Demokratik partiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashkiloti (1996.27.02), "Fidokorlar" Milliy Demokratik partiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashkiloti (1999.22.01), O‘zbekiston Liberal Demokratik partiyasi Qoraqalposhston Respublikasi tashkiloti (2004.23.01) hamda "Ekologik" partiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi tashkiloti faoliyat ko‘rsatadi.

Qoraqalpog‘iston Qizilqum cho‘lining shimoli-g‘arbiy, Ustyurt platosining janubi-sharqiy qismi va Amudaryo deltasida joylashgan.

Orol dengizining janubiy qismi Qoraqalpog‘iston hududida.

Qizilqumning shimoli-g‘arbiy qismi Orol dengizi tomon pasayib boruvchi keng yassi tekislik bo‘lib, qator tepa va qumli barxanlar (balandligi 75 m dan 100 m gacha) uchraydi. Alohida tog‘ massivlari (eng, yirigi – Sulton Uvays tog‘i, cho‘qqilari 473 m va 485 m) bor. Sug‘oriladigan yerlar va sug‘orish kanallari, asosan, deltaning o‘ng sohilida. G‘arbida bir nechta botiqli (Borsakelmas, Asakaovdon botiqlarining balandligi 29–101 m) Ustyurt platosi joylashgan. Plato Orol dengizi va Amudaryo deltasiga tik yon bag‘irli jarlik – chinklar hosil qilib tushgan. Ustyurtdan janubi-sharqda Sariqamish soyligining shimoliy chekkasi joylashgan.

Qoraqalpog‘iston hududida foydali qazilmalardan gaz, gaz kondensati, neft, qurilish va qoplama toshlar, gips va ohaktosh, keramzit, sement, kon-ruda va kon-texnika xom ashyosi olinadi.

Sanoatida ishlov beruvchi va xom ashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mavjud bo‘lib, ular quyidag‘ilardan iborat: elektroenergetika; yoqilg‘i sanoati; kimyo va neft kimyosi; mashinazorlik va metallsozlik; o‘rmon. yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz; un-yorma va aralash yem; poli-grafiya sanoatlari.

Taxiatosh issiqlik elektr stansiyasi respublika va qo‘shni viloyatlarning elektr energiyasiga bulgan talabini qondiradi (stansiyaning o‘rtacha yillik quvvati 443,4 MVt). 1996 yilda Qo‘ng‘irot tumanida "Ustyurtgaz" korxonasining ishga tushirilishi bilan yoqilg‘i sanoati vujudga keldi. 2004 yilda respublika buyicha 1697,1 mln. m³ gaz va 30,4 ming t kondensat yetkazib berildi. 1993 yilda "Nukuskabel" ishga tushirilishi bilan kabel sanoati vujudga keldi. Mustaqillik yillarida Qo‘ngirot un zavodi (1993), "To‘rtko‘ldon" (1997), kichik novvoyxonalar va makaron ishlab chiqarish korxonalari bunyod etildi.

Yirik sanoat korxonalari Amudaryo tumanida (paxta zavodi va ip pigiruv va to‘qimachilik fabrikasi), Beruniy tumanida (paxta, yog‘-moy zavodlari, to‘qi-machilik korxonasi). Qung‘irot tumanida (paxta, un-yorma zavodlari, "Us-tyurtgaz"), To‘rtko‘l tumanida (paxta, un tortish zavodlari), Xo‘jayli tumanida (paxta, yog‘-moy, ta‘mirlash-me-xanika va gisht zavodlari). Chimboy tumanida (paxta, yog‘-moy, unyorma zavodlari), Ellikqal’a tumanida (paxta zavodi, "Elteks" aksionerlik jamiyati va "Yuniver" qo‘shma korxonasi), shuningdek, Nukus shahrida (vino zavodi, poligrafiya kombinati, "Kateks", "Nukus non", "Daunt" korxonalari, un-yorma zavodi, 2 ta qurilish sanoati korxonasi) va taxiatosh shahrida (ta‘mirlash-mexanika va uyayorma zavodlari) faoliyat ko‘rsatadi.

Qishloq xo'jaligi, asosan. paxtachilik, g'allachilik (sholi va bug-doy yetishtirish) va chorvachilik (go'sht, sut, qorako'lchilik)dan iborat. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti hajmida paxta 22,4%, g'alla ekinlari 22,1%, chorva mahsulotlari 36,4% ni tashkil etadi. 2004 yilla umumiy ekin maydoni 251,2 ming ga, shundan 92,9 ming ga maydonga donli ekinlar, 102,9 ming ga yerga paxta. 13 ming ga yerga sabzavot-poliz, 34,2 ming ga yerga yemxashak ekinlari ekildi. Chorvachilik, asosan, go'sht-sut yetishtirishga ixtisoslashgan. 2005 yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda 437,7 ming qoramol, 539,9 ming qo'y va echki, 844,7 ming parranda, 15,8 ming ot boqildi.

Расмий хабарлар|КАРАНТИН, [02.10.20
16:17]

Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгесининг навбатдан ташқари сессиясида ҳудудни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилди.

Президент Шавкат Мирзиёев Мурат Камаловни Жўқорғи Кенгес Раислигига сайлангани билан табриклаб, ўта масъулиятли вазифада муваффақият тилади.

Йиғилишда Қорақалпоғистонни ривожлантириш бўйича келгуси 3 йилга мўлжалланган ўнта устувор йўналиш белгиланди, ҳар бири бўйича тегишли кўрсатмалар берилди





Президент Шавкат Мирзиёев Нукус шаҳридаги Опера ва бахшичилик мактаб-интернати бориб кўрди.

Ихтисослаштирилган таълим маскани ўтган ойда ишга туширилди.

Муассаса 150 ўринга мўлжалланган бўлиб, унга 9 синфни битирган иқтидорли ўқувчи ёшлар танлов асосида қабул қилинади. Ҳозирда 30 нафар ўғил-қиз ўқишни бошлади. Уларга таниқли санъат усталари ва педагоглар сабоқ бермоқда.

Давлатимиз раҳбари мактаб ўқувчилари ва ўқитувчилари билан суҳбатлашди.

Қорақалпоғистон Республикасини ривожлантиришнинг 10 та устувор йўналиши

(Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 2 октябрь куни Қорақалпоғистон Республикасида бўлиб ўтган Жўқорғи Кенгесининг навбатдан ташқари сессиясидаги нутқидан)

1 Туманлар ва маҳаллаларни жадал ривожлантириш



2 Аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш



3 Инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш



4 Орол муаммосининг салбий таъсирини юмшатиш



5 Хизмат кўрсатиш соҳаси салоҳиятини тўлиқ ишга солиш



6 Қишлоқ хўжалигини қўллаб-қувватлаш



7 Уй-жой билан таъминлаш



8 Ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш



9 Ёшлар ва аёлларни қўллаб-қувватлаш



10 Жиноятчиликнинг олдини олиш



Ўзбекистон Республикаси
Президенти Администрацияси ҳузуридаги
Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги



WWW.AOKA.UZ



@AOKA_UZ




INFO@AIMC.UZ

Президент Шавкат Мирзиёев Нукус шаҳридаги «Қорақалпоқ балиқ саноат» МЧЖ фаолияти билан танишди.

Корхона йилига 200 тонна балиқ ва 5 миллион дона балиқ личинкалари етиштириш, 5 минг тонна озуқа ем тайёрлаш қувватига эга.

Шу ерда қишлоқ хўжалиги тармоқларидаги лойиҳалар тақдимот қилинди. Давлатимиз раҳбари чорвачиликда оилавий кооперцияни йўлга қўйиб, паррандани кўпайтириш, гўшт нарҳини арзонлаштириш чораларини кўриш муҳимлигини таъкидлади.





Давлатимиз раҳбари Нукус шаҳрида барпо этилаётган кўп қаватли уй-жойлар ва IT-паркни бориб Уларни 2021 йилда фойдаланишга топшириш режалаштирилган.

Президент янги турар жойларнинг шоу-румиди бўлиб, уларда яратиладиган шароитлар билан танишди.

Нукус шаҳрининг инфратузимасини яхшилаш бўйича кўрсатмалар берилди.



Орол фожиаси: ер ва сув кураши

Чўлга айланган денгизни қандай қутқариш мумкин

СОБИҚ ОРОЛ ДЕНГИЗИ МАЙДОНИ



1930 – 1960 йиллар

СУҒОРИШ КАНАЛЛАРИ
ҚУРИЛИШИ

1960 й.

СУҒОРИЛАДИГАН ЕР МАЙДОНЛАРИ

4,5 МЛН ГА

СУҒА БУЛГАН ЭҚТИЁЖ

60 КМ²

1991 й.

СУҒОРИЛАДИГАН ЕР МАЙДОНЛАРИ

7 МЛН ГА

СУҒА БУЛГАН ЭҚТИЁЖ

120 КМ²

ОРОЛ ДЕНГИЗИГАЧА ЕТИБ КЕЛАДИГАН ДАРЁ СУВЛАРИ ҲАЖМИ **90%** ГА ҚИСҚАРДИ

ҲАЙВОНОТ ОЛАМИНИНГ КАМАЙИШИ



319

ҚУШЛАР

160

70



СУТ ЭМИЗУВЧИЛАР

32

32



БАЛИҚЛАР

6

БАЛИҚЧИЛИК
САНОАТИНИНГ
ҚИСҚАРИШИ

1960 йил

40 000 т

2004 йил

200 т

ОРОЛ ҚУРИШИНИНГ ЗООЛОГИК ХАВФИ

1960 – 2011 ЙИЛЛАРДА ОРОЛ ДЕНГИЗИ МАЙДОНИ ҲЗГАРИШИ



ОРОЛ ДЕНГИЗИ МАЙДОНИ **80** % ГА ҚИСҚАРИБ
ДЕНГИЗ ҮРНИДА ҚУМ-ТУЗЛИ
ОРОЛҚУМ ЧҮЛИ ПАЙДО БҮЛДИ

Ўзбекистонда ҳар бир киши 1 суткада **2-3 литр** чучук сув ичади. Гидросферанинг фақатгина **2,5 фоизини** чучук сув ташкил қилиши ҳақида биласизми? Ёки қишлоқ хўжалигининг айрим соҳаларидаги сув сарфини қиёсий ҳисоблаб кўрсак, 1 тонна буғдой етиштириш учун **1,5 тонна**, 1 тонна шоли учун - 4-5 минг тонна, 1 тонна пахта етиштириш учун **10 минг тонна** сув сарфланиши ҳақида нима дея оласиз? Ўз экологик маданиятингиз қай даражада деб ҳисоблайсиз?

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2019.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон – бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 1993.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислохатларни чуқурлаштириш йўлида. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 1996.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 1997.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Тошкент: “Маънавият”. 2008.
7. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: “Ўзбекистон”. 2016
8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т. 1. - Тошкент: “Ўзбекистон”. 2017.
9. Усмонов Қ., Ғаниев Д. Ўзбекистон : мустақиллик одимлари. - Тошкент: “Шарқ”. 1995.
10. Бобожонова Д. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. –Тошкент: “Фан”. 1995.
10. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. – Тошкент: “Маънавият”. 2017.



Эътиборингиз учун раҳмат!

